

**TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI TO'G'RI TASHKIL ETISH VA
BAHOLASH YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR**

Barakayev Murod

p.f.n., professor (O'zMPU)

Shokirova Muxlisa

II bosqich magistranti (O'zMPU)

Annotatsiya: *Maqolada talabalar mustaqil ishlari (TMI), ularni tashkil etish, auditoriya va auditoriyadan tashqari TMI, ularni tashkil etish bo'yicha talabalarga metodik tavsiyalar, TMI ishlarini baholash ko'rsatkichlari atroflicha asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *Mustaqil ish, TMI, mustaqil ishlarni tashkil etish, ularni baholash.*

TMI – o'qituvchining ko'rsatmasi va metodik rahbarligi ostida, auditoriyada uning qisman bevosita ishtirokida va auditoriyadan tashqarida bajariladigan ishlari bo'lib, ular oldindan rejalashtirilgan o'quv-tadqiqot va ilmiy-tadqiqot ishlaridan iborat bo'ladi.[3]

Hozirgi kredit-modul tizimi sharoitida TMI to'raligicha o'quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanib, u bilimlarni o'zlashtirishning faol metodlari va usullariga, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, individual ta'limni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, TMI zamonaviy ta'lim amaliyotida talabalar mustaqilligi va ijodiy faoliyatini rag'batlantiruvchi ta'lim shakllaridan biri hisoblanadi.

TMI har bir talaba bajarishi majburiy bo'lgan o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lib, uning hajmi har bir o'quv kursining o'quv rejasida belgilab qo'yiladi. O'rganilayotgan o'quv kursi va u bo'yicha bajarishi kerak bo'lgan mustaqil ishlar mazmuni esa ta'lim yo'nalishi bo'yicha davlat ta'lim standarti va fanlarning o'quv dasturlarida belgilab qo'yiladi.

TMI tashkiliy va metodik jihatdan o'quv-metodik nashrlar, elektron kutubxona tizimlarida joylashtirilgan dasturiy ta'minotlar, elektron ta'lim muhiti, har bir oliy ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi bilan ta'minlangan bo'lishi talab etiladi. Aks holda TMI ning maqsad va vazifalarini amalga oshirib bo'lmaydi. Bu o'z navbatida ta'lim maqsadlariga erishishni ta'minlashni kafolatlanmasligiga olib keladi.

O'quv kursi bo'yicha auditoriyada bajariladigan mustaqil ishlar bevosita o'qituvchi boshchiligida ma'ruza, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlarida va rejalashtirilgan maslahatlar shaklida olib boriladi

Auditoriyadan tashqari TMI o'qituvchining topshiriqlari asosida talaba tomonidan amalga oshirilib (ularni bajarishda o'qituvchi bevosita ishtirok etmaydi), ular asosan quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

rasmiy, statistik, davriy va ilmiy axborotlarning elektron vositalardan foydalangan holda o'quv, ilmiy va metodik adabiyotlar, davriy nashrlardagi mustaqil ish mavzusiga tegishli bo'lgan materiallarni o'rganish va konspektlashtirish;

seminarlarda berilgan uy topshiriqlarini bajarish;

o'rganilayotgan mavzular bo'yicha vizual materiallar yaratish;
o'quv dasturida nazarda tutilgan hisoblash va grafik ishlar bo'yicha nazorat ishlarini bajarish;

test topshiriqlarini bajarish;

ilmiy-amaliy konferensiyada ishtirok etish ichun tezislar tayyorlash;

ilmiy maqolalar yozish;

joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorlanish [1].

O'qituvchi boshchiligida amalga oshiriladigan TMIning asosiy turlari quyidagilar:

mustaqil ishlar bo'yicha joriy maslahatlar;

topshiriqlarni qabul qilish va tahlil qilish (amaliy va seminar mashg'ulotlar vaqtida);

o'quv rejasida nazarda tutilgan mustaqil ishlarni qabul qilish (nazorat ishlari, hisoblashga doir va grafik ishlar).

Mazkur davrlarda amalga oshirilgan ishlarni bajarish jarayonida o'qituvchi talabalar faoliyatini nazorat qilish va baholashda, talabalar esa mustaqil ishlarni sifatli va samarali bajarishida quyidagi metodik tavsiya va ko'rsatmalarga amal qilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Talabalarga TMI ni bajarish yuzasidan metodik ko'rsatmalar:

1. Mustaqil ta'lim uchun rejalashtirilgan mavzular mazmunini o'quv va maxsus texnik adabiyotlardan foydalangan holda qisqacha konspektlashtiring.

2. Doimiy ravishda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorlanib boring (Bunda mustaqil ishlar uchun rejalashtirilgan o'quv materiallari ham yuqorida sanab o'tilgan nazorat turlariga to'la kiritilishini hisobga oling).

3. Har bir o'quv mashg'ulotida va mustaqil ishlar bo'yicha tuzilgan konspekt materiallarini anglangan holda tushunish darajasiga yetgunga qadar o'rganing.

4. Har bir mavzuni konspektlashtirish jarayonida o'zingiz uchun tushunarsiz bo'lgan va unda uchraydigan yangi atamalarni yetarli darajada o'rganishga harakat qiling. Agar o'rganish jarayonida o'zingiz hal eta olmaydigan muammolar yuzaga kelsa o'qituvchidan maslahatlar oling. Aks holda mazkur o'zlashtirilmagan materiallar kelgusida nazariy, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarida kerakli darajada idrok etishga to'sqinlik qiladi.

5. Darslikda yoki o'quv qo'llanmlarda har bir mavzu bo'yicha berilgan nazorat savollari va testlariga javoblarni tayyorlang.

6. Auditoriyada va auditoriyadan tashqarida o'rganilgan materiallarning mazmunini "o'z so'zlaringiz bilan" qisqacha bayon qila olishga o'rganing.

7. Har bir mavzu bo'yicha qaralgan tayanch tushunchalar va ta'riflarni yod oling va teoremlar, xossalar, qoidalar isbotini o'rganing.

8. Har bir o'rganilgan nazariy materiallar, qoidalar, xossalar, teoremlar, formulalar va qoidalardan amaliy mashg'ulot jarayonlarida foydalana olish ko'nikmalarini egallang va h.k.[1]

Auditoriyada bajarilgan mustaqil ish natijalarini baholashda quyidagi ko'rsatkichlarni hisobga olish maqsadga muvofiq:

o'quv materialini o'zlashtirish darajasining sifati;

amaliy mazmundagi masalalarni yechishda yoki amaliyotga yo'naltirilgan savollarga javob berishda egallagan nazariy bilimlardan foydalana olish qobiliyati;

masalalarni yechishda yoki savollarga javob berishda bergan javoblarni aniqligi va asoslanganligi;

auditoriyada o'rganilgan mavzularni qisqacha konspektlashtirganligi va uni o'z tilida qisqacha bayon qila olish darajasi kabilarga e'tibor qaratish kerak.[2]

Auditoriyadan tashqari TMI ni bajarishda o'qituvchi tomonidan berilgan mavzu bo'yicha ma'ruza tayyorlashda quyidagilarga amal qilish tavsiya etiladi:

1) O'qituvchi tomonidan ma'ruza uchun taklif qilingan mavzulardan birini tanlang (Bunda siz o'zingiz mustaqil ravishda mustaqil ish rejasiga mos keladigan mavzuni tanlashingiz mumkin).

2) Tanlangan mavzu bo'yicha ma'ruzani tayyorlashda mavzuga oid turli adabiyotlardan, elektron kutubxona materiallaridan va internet resurslaridan foydalaning. Foydalangan manbalaringizni adabiyotlar ro'yxatida keltiring.

3) Ma'ruzani tayyorlashda foydalangan har bir adabiyot yoki maqolalardan iqtibos keltiring.

4) Yig'ilgan materiallarni tahlil qiling va shu asosida ma'ruza rejasini tuzing.

5) Tuzgan rejangiz asosida ma'ruzani yozing.

6) Tayyorlangan ma'ruzani taqdim etish ketma-ketligini aniqlang va hisobot uchun taqdimot tayyorlang.

Auditoriyadan tashqari TMI natijalarini baholashda quyidagi ko'rsatkichlarni hisobga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

berilgan mavzu bo'yicha ma'lumotlarning to'liqligi va bayon qilinish sifati;

hisobot materialidan erkin foydalanilish imkoniyatlari;

materialni taqdim etishning aniqligi va mantiqiyliigi;

taqdimot materialining mavjudligi va sifati.

TMI ni bajarish jarayonida adabiyotlar bilan ishlashda quyidagi ko'rsatmalarga amal qilishi muhim hisoblanadi:

1. O'quv mashg'ulotida tuzilgan konspektni diqqat bilan o'qing. Unda bor bo'lgan formulalarni aniqlang.

2. Mashg'ulot jarayonida masalalarni yechishda ushbu formulalardan qanday foydalanilganligiga e'tibor bering.

3. Mazkur formulalardan foydalangan holda o'qituvchi tomonidan induvidial tartibda berilgan masalani mazkur formuladan foydalangan holda yeching.

4. Olingan natijani tahlil qiling, ya'ni miqdorlarning o'lchamlarni, formulalarga qo'yilgan son qiymatlarni, shakl almashtirishning to'g'riligini, hisoblashlarning to'g'riligini va h.k. [1]

Bunday auditoriyadan tashqari TMI natijalarini baholashda quyidagi ko'rsatkichlarga asoslanish maqsadga muvofiq:

masala shartining va yechimining to'g'riligi;

formulalardan to'g'ri foydalana olganligi;

adabiyotlardan to'g'ri foydalana olganligi;
hisoblashlarning to'g'ri va aniq bajarilganligi;
masala yechimining asoslanganligi.

Umuman olganda, TMI ishlarini to'g'ri tashkil etish va baholashga bunday yondashish talabalarning anglangan bilimlarni egallashini ta'minlaydi va pirovardida ta'lim maqsadlariga erishishni oldindan kafolatlash imkoniyatlarini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Barakayev va b. Matematika o'qitish metodikasi (Mustaqil ta'lim, o'quv qo'llanma) - T.: "O'zbekiston faylasufkari milliy jamiyati", 2019, 160 bet
2. Kurmanova, E.A. Upravlenie samostoyatelnoy rabotoy studentov na auditornix zanyatiyax. – Moskva, j.Srednee professionalnoe obrazovanie. – 2007. -№ 6. –S. 63
3. Saenko, O.E. Organizatsiya samostoyatelnoy raboti studentov. – M.: Dashkov i K, 2007. – S. 201-205.